
Ehtiyojmand xonadonlarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bayram arafalarida oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatmlayotganligi fuqarolar shodligiga shodlik ulashmoqda.

Farg'ona shahrida ham Ramazon oyi va hayit bayrami munosabati bilan 5 ta oilaviy yotoqxonalarda istiqomat qilayotgan 350 dan ortiq ehtiyojmand oilalarga 9 xil turdagi zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

Fuqarolar berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik uchun Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2023-04-18 20:21:22